

AYOLLAR USTKI KIIYIMLARIDA MURAKKAB SILUETLARNI TAHLIL QILISH VA DIZAYN-LOYIHASINI YARATISH

Uralova Maftuna Rustamjon qizi

Bo'ka tumani politexnikumi ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola ayollar ustki kiyimlarida murakkab siluettlarni tahlil qilish va ularning dizayn-loyihadini yaratish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqot murakkab siluettlarning konstruktiv va estetik xususiyatlarini o'rganish, ergonomika va moda tendensiyalarini uyg'unlashtirish, shuningdek, amaliy dizayn-loyihalarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Maqolada siluet tahlili, material tanlash, qatlamlilik va vizual uyg'unlik kabi omillar tahlil qilinib, zamonaviy ayollar ustki kiyimi dizaynida murakkab shakllardan foydalanishning samarali usullari ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *ayollar ustki kiyimi, murakkab siluet, dizayn-loyixa, konstruktiv tahlil, ergonomika, moda tendensiyalari, vizual uyg'unlik, qatlamlilik*

KIRISH

Kiyimning yuqori qismi pastki qism bilan bel chizig'ida yaxlit bichilgan yoki qirqma bo'lishi mumkin. Old va ort bo'laklarining qirqma yuqori qismi koketka, deb ataladi. Kiyimning konstruktiv harakteristikasi. Kiyimning konstruktiv tuzilishi uning bichimi va silueti, detallarning shakli, birikma choklarning turi va materiallar xili bilan harakterlanadi.

Modellash bu turli shakl va bichimdagi kiyim modelining konstruktsiyasini ishlab chiqaradigan murakkab ijodiy jarayondir. Turli shakl va bichimdagi modalar konstruktsiyasini tuzilmoqchi bo'lgan asosiy konstruktsiya bazasidan olish mumkin. Bu jarayon amaliy modellash yoki odatda, aytilishiga binoan texnik modellash deb ataladi. Texnik modellash tipovoy konstruktsiya asosini yangi model konstruktsiyasiga aylantirishdan iborat[3].

1. Murakkab siluettlarning nazariy tahlili

Murakkab siluettlar ayollar ustki kiyimlarining asosiy vizual va konstruktiv elementi hisoblanadi. Siluet – kiyimning tashqi shakli, uning tanaga moslashuvi va estetik qiyofasini belgilovchi parametrdir. Zamonaviy kiyim dizaynida siluettlar turli xil bo'lib, ular kiyimning turli qismlarini vizual ta'kidlash, harakat erkinligini ta'minlash va moda tendensiyalariga moslashish imkonini beradi. Trapezoid, A-siluet, oversayz, qatlamli va struktural siluettlar ayollar ustki kiyimlarida eng ko'p uchraydigan turlardir. Har bir siluet turi tananing muayyan qismini aks ettiradi va kiyimning tashqi ko'rinishini estetik jihatdan boyitadi [1].

Siluettlarni tahlil qilishda bir nechta parametrlar muhim hisoblanadi: uzunlik, kenglik, bo'shliq, qatlamlilik, proporsiya va vizual balans. Masalan, oversayz siluet kenglikni oshirib, qulaylik va harakat erkinligini ta'minlaydi, trapezoid siluet esa

yelkadan pastga kengayib, klassik ko'rinish yaratadi. Qatlamli siluetlar esa murakkab konstruktiv va dekorativ elementlar yordamida kiyimga hajm va dinamika bag'ishlaydi.

2. Konstruktiv tahlil va material tanlash

Murakkab siluetlarni yaratishda konstruktiv jihatlar muhim rol o'ynaydi. Kiyimning to'g'ri o'lchami, tikuv texnologiyasi, qatlamlar va dekor elementlari siluetning aniq shaklini belgilaydi. Ayollar ustki kiyimlarida qatlamlilik, bel bo'yicha chiziqlar va yelkalarni ta'kidlash kabi elementlar ishlatiladi. Ushbu elementlar nafaqat estetik ko'rinish beradi, balki kiyimning ergonomikasini oshiradi[2].

Material tanlash ham siluetni shakllantirishda asosiy omildir. Palto, blazer va kurtkalar uchun matolar elastik, mustahkam va o'zini ushlab turadigan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Tabiiy matolar (jun, paxta, ipak) va aralash matolar siluetning qulayligini, haroratni saqlash va havo o'tkazuvchanligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, matoning qalinligi, tuzilishi va rang-barangligi vizual estetikani belgilaydi. Masalan, qatlamli siluetlar uchun qalinroq va mustahkam matolar ishlatiladi, chunki ular hajmni saqlash va shaklni mustahkamlash imkonini beradi.

3. Dizayn-loyihani yaratish jarayoni

Dizayn-loyihani yaratish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat: siluet tanlash, konstruktiv chizmalarni tayyorlash, material tanlash, rang va tekstura uyg'unligini belgilash, prototip yaratish va testlash.

Birinchi bosqichda dizayner talablar va moda tendensiyalariga mos ravishda siluet turini tanlaydi. Masalan, ish joyi uchun blazer yoki harakat erkinligi yuqori bo'lishi kerak bo'lgan kurtka kabi modellar tanlanadi. Shu bosqichda siluetning proporsiyasi, uzunligi, bo'shliqlari va dekor elementlari aniqlanadi [3].

Ikkinchi bosqich – konstruktiv chizmalarni tayyorlash. CAD tizimlari va 3D-modellashtirish dasturlari yordamida dizayner siluetning aniqligi, qatlamlilik va dekor elementlarini virtual tarzda ko'radi. Bu metodologiya murakkab shakllarni sinash va optimallashtirish imkonini beradi.

Uchinchi bosqich – material tanlash va ranglarni aniqlash. Rang uyg'unligi, mato tuzilishi va dekor elementlari dizaynning estetik va funksional xususiyatlarini belgilaydi. Masalan, klassik blazer uchun neytral ranglar va tekis matolar ishlatiladi, oversayz yoki qatlamli palto uchun esa yorqin ranglar va mustahkam matolar mos keladi.

To'rtinchi bosqich – prototip yaratish va testlash. Tayyorlangan dizayn asosida haqiqiy kiyim tikiladi va uning ergonomikasi, siluet shakli va vizual ko'rinishi sinovdan o'tkaziladi. Zarur hollarda siluet va konstruktiv chizmalar optimallashtiriladi.

4. Amaliy tadqiqot va natijalar

Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murakkab siluetlar nafaqat estetik, balki funksional jihatdan ham muhimdir. Oversayz va qatlamli siluetlar harakat erkinligini oshiradi, trapezoid va struktural siluetlar esa tananing muayyan qismlarini vizual ta'kidlashga yordam beradi. Material tanlash va dekor elementlarini moslashtirish orqali kiyimning tashqi ko'rinishi va qulayligi maksimal darajada oshiriladi.

Shuningdek, 3D-modellashtirish va CAD tizimlaridan foydalanish dizaynerlarga murakkab siluetlarni yaratishda vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Natijada, murakkab siluetlarni tahlil qilish va dizayn-loyihagini yaratish jarayoni aniq, tizimli va ilmiy asoslangan bo'ladi.

5. Ergonomika va moda uyg'unligi

Ayollar ustki kiyimlarida murakkab siluetlarni yaratishda ergonomika va moda tendensiyalari uyg'unligi muhimdir. Kiyim tanaga qulay bo'lishi, harakatni cheklamasligi va zamonaviy ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, murakkab siluetlar trend va fasl o'zgarishlariga moslashishi zarur. Ergonomika, konstruktiv tahlil va estetik uyg'unlikni hisobga olgan holda yaratilgan dizayn-loyihalar zamonaviy moda talablariga javob beradi [4].

Model chiziqlarining hammasini konstruksiya asosining chizmasida xuddi model rasmidagidek joylashtirish kerak. Bunda ayolning gavda tuzilishining xususiyati, uning proporsiyasi albatta hisobga olinishi kerak. Bu konstruksiya asosining chizmasiga tushirilgan fason chiziqlari gavdaning haqiqiy proporsiyasini buzib qo'ymasligi uchun kerak. Fason chiziqlarining bichimi va silueti mos keladigan konstruksiya asosining chizmasiga tushiriladi. Masalan, modelning yenglari old va ort bo'laklar bilan yaxlit bichiladigan konstruksiya asosining chizmasida bo'lishi kerak va hokazo.

XX asr o'rtalarida o'ta murakkab bichimli ko'krak burma, no'g'oy ko'ylak, kamzor burish, burma ko'ylak kabi liboslar ayollar o'rtasida keng ommalashdi. Ko'krak burma ko'ylak yosh ayollar, o'rta va keksa yoshli ayollar o'rtasida ziyolilar hamda xizmatchilarning milliy libosi sifatida mustahkam o'rin egalladi. Kiyimning ko'krak burma va yoqa bichimida o'zgarishlar yuz berdi. Uning oldingi va orqa tomonlari yelka chizig'i bo'ylab ko'krak hamda kurak qismlarga ajratib bichilib, asosiy qismga qo'shib tikiluvchi quyi tomoni esa uchburchak shaklini oldi. Yoqa qaytarmali bo'lib, uchlari o'tkir yoki aylana ko'rinishga kirdi. Yeng an'anaviy ravishda yaxlit va cho'zinchoq mato bo'lagidan bichilar, o'rishning bo'ylama ipi ham u bo'ylab o'tardi[4].

Zamonaviylik ta'siri ostida yetmishinchi yillarda ko'krak burma ko'ylak kaltaroq – boldir o'rtasiga yetadigan qilib tikila boshlandi, yenglar bilakkacha yetar va aylanasi qo'ltiq o'miziga tikilardi. Ko'krak burmasi xilma-xil – to'g'ri, yarim aylana yoki uchburchak shakllarga kirdi. Bu ko'ylaklarning yoqasi qaytarma bo'lib, uchlari o'tkir yoki aylana shaklida bo'lgan. Shundan keyingi yillarda ko'ylak bichimi yevropacha modaning turli qismlari hisobiga boyib bordi. Bo'yin o'ymasi, ko'krak burmasi va etak turli-tuman taxlar, burmalar, qat-qat tax, burmali hoshiya, kashta va hokazolar bilan bezatila boshlandi. Ko'krak burmasi va asosiy qism ham xilma-xil ko'rinishlarga uchradi.

Figuraga moslashgan konstruktiv yechimlar: qanotlar, qatlamlar, assimetriya, transformer elementlar va boshqa vizual effektlar. Har bir millatning madaniy merosi va an'anaviy kiyim-kechagi uning milliy o'zligini namoyon etadi. Ayollar uchun mo'ljallangan ustki kiyimlar nafaqat hayo va nafosatni, balki zamonaviy uslubni ham o'zida mujassam etmog'i lozim. Bu maqolada murakkab bichimli kiyimlar urnashuvi

tadqiq qililib, ayollar uchun estetik jihatdan qulay, zamonaviy va milliy uslubdagi ustki kiyim dizayn-loyihasini ishlab chiqish usullari o'rganiladi[5].

Moda san'ati insonning estetik ehtiyojlari, ijtimoiy mavqei va shaxsiy didi ifodalanadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi rivojlanish nafaqat oddiy kiyimlar, balki murakkab bichimli, konstruktiv va funksional kiyimlar orqali ham namoyon bo'ladi. Bu kabi kiyimlar odatda faqat moda uchun emas, balki teatr, kino, maxsus tadbirlar, hamda yuqori darajadagi dizayn ko'rgazmalarida qo'llaniladi

Tadqiqot doirasida murakkab bichim elementlarining o'rni, ularning kiyim o'rtnashuviga ta'siri, material tanlashning ahamiyati, hamda texnologiyaviy jarayondagi muhim bosqichlar tahlil qilindi. Shuningdek, kompyuter dasturlari yordamida kiyim modeli eskizlari va konstruktorlik hujjatlari ishlab chiqildi[5].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar ustki kiyimlarida murakkab siluetlarni tahlil qilish va dizayn-loyihasini yaratish jarayoni zamonaviy moda va ergonomik talablarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Murakkab siluetlar kiyimning tashqi ko'rinishini boyitadi, tananing muayyan qismlarini vizual ta'kidlaydi va harakat erkinligini ta'minlaydi.

Siluet tahlili, konstruktiv chizmalar va qatlamlilik parametrlarini hisobga olish dizaynerlarga amaliy va estetik jihatdan mukammal kiyim yaratishga imkon beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raximova Z.M. – "Zamonaviy texnologiyalarda murakkab konstruksiyali kiyim yaratishning o'rni". TTITU Ilmiy Axborotnomasi, 2022.
2. Sodikova N. // O'zbek ayollarining milliy kiyimlari. 2007, B. 98
3. Oqilova K. Dizayn nazariyasi, amaliyoti va rivojlanish istiqboli //San'at, 2014. – №3. – B. 9.
4. Sodiqova N. O'zbek ayollaring milliy kiyimlari // Sharq, 2007. – B.78- 92
5. Xodjaeva G. – "Kiyim dizayn jarayonida milliy an'analardan foydalanish". Madaniyat va san'at, 2021.